

FUQAROLIK JAMIYATINING TARIXI VA RIVOJLANISHI

Azamova Sitora Ayonovna

SHDPI ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Xurramova Ruxsora Ashurali qizi

*SHDPI Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va
huquq ta'limi yo'nalishi 1 kurs talabasi*

Annotatsiya: Maqolada hozirgi kunda fuqarolik jamiyatni, ilk tasavvurlar hamda insonlarning erkin yashashlari, adolat va qonun ustuvorligi haqida fikr yuritilgan. Fuqarolik jamiyatni atamasi haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Fuqarolik, jamiyat, siyosat, axloq, qonun, g'oya, huquq, erkinlik, madaniyat.

Abstract: The article discusses civil society, the first ideas and free living of people, justice and the rule of law. Information about the term civil society is provided.

Key words: Citizenship, society, politics, morality, law, idea, law, freedom, culture.

Insoniyat tarixi shundan guvohlik beradiki fuqarolik jamiyatining mavjudligi demokratik tipdagi siyosiy tizim shakllanishining eng muhim sharti hisoblanadi. Aslida biz o'rganishni boshlayotgan fuqarolik jamiyatni aholi ijtimoiy faolligining davlat organlari faoliyatiga bog'liq bo'limgan turli shakllarini o'zi ichiga olgan majmuani ifodalaydi hamda jamiyat tuzilishining haqiqiy darajasini namoyon etadi.

Fuqarolik jamiyatni tushunchasi ifodalaydigan ijtimoiy aloqalar majmui u yoki bu mamlakat xalqiga xos bo'lgan fuqarolik munosabatlarining sifat ko'rsatkichi bo'lib, ijtimoiy sohada davlat va jamiyat funksiyalarini farqlaydigan asosiy mezon hisoblanadi. Bu aloqalar majmui hamisha transformatsiyalashuvi va dinamik hususiyat kasb etishi bilan e'tiborni tortadi.

Jamiyatda haqiqiy demokratiya sharoitida, ya'ni siyosiy hokimiyatning jamiyat va uning a'zolari ustidan hukmronligi emas, balki jamiyatning davlatga nisbatan so'zsiz birlamchiligi sharoitida insonning tom ma'nodagi erkinligi ta'minlanishi mumkin va bu darajaga erishish uchun davlat va jamiyat o'rtasida muntazam vakolatlar va vazifalarni o'zgarib turishi lozimligi namoyon bo'ladi. Bunday jamiyatga o'tish tarixiy jihatdan uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, u fuqarolik jamiyatining shakllanishi bilan bog'liqdir.

Jamiyat tushunchasi bilan "fuqarolik jamiyati" tushunchasi o'rtasida nafaqat chambarchas bog'liqlik, balki juda jiddiy farqlar ham mavjuddir. Insonlar o'rtasidagi munosabatlар majmui hisoblangan jamiyat o'z taraqqiyotining takomilga etgan bosqichida, ma'lum sharoitlarda fuqarolik jamiyatiga aylanadi. SHu nuqtai-nazardan, garchi mohiyatida mavhumlik namoyon bo'lsa-da, "fuqarolik" tushunchasi negizida aniq va tugal mazmun mavjud. Fuqarolik jamiyati kategoriyasi jamiyatning tuzilishi va o'z-o'zini boshqarish nuqtai-nazardan sifat jihatidan yangi holatni ifodalaydi, davlat va shaxs manfaatlarning muqobilligini namoyon etadi. Bunda inson, uning huquq va erkinliklari oliv qadriyat sifatida namoyon bo'ladi. SHu tufayli nafaqat oddiygina fuqarolik jamiyati xususiyatlariga ega bo'lмаган "nofuqarolik jamiyati"ni, balki shaxsga tazyiq o'tkazadigan, jamiyat a'zolarining ijtimoiy va shaxsiy hayotini to'liq nazorat qiladigan jamiyatni ham fuqarolik jamiyatiga qarshi qo'yish mumkin.

Fuqarolik jamiyati – haqiqiy fuqarolardan, ya'ni uzviy bog'liqlikda bo'lgan hamda axloqiy madaniyatga tayanadigan huquqiy va siyosiy madaniyatga ega odamlardan iborat jamiyatdir.

Fuqarolik jamiyati haqida ilk tasavvurlar Aristotelning „Siyosat“ asarida bayon etilgan. Unga ko'ra, insonning erkin yashash huquqi kishilik jamiyatiningadolat va qonun ustuvorligi asosida tashkil etilishi orqali ta'minlanishi lozim. Jamiyatni boshqarishda qonunlarning to'g'ri vaadolatli bo'lishiga alohida e'tibor beriladi. Bu g'oyalar XVII asrga kelib keng rivojlandi. Jumladan, T.Gobbs asarlarida takomillashtiriddi. XVIII asr Buyuk fransuz inqilobi davrida Inson va fuqaro huquklari deklaratasiyasi e'lon qilinishi bilan esa Fuqarolik jamiyati

tushunchasi keng tarqala boshladi. Chunki jamiyatning teng huquklari a'zolari – „fuqarolar“ tushunchasi paydo bo'ldi, ular jamiyat va davlat manfaatlari bilan bog'langan shaxsiy manfaatlarini anglay boshladilar. Kant, Russo, Gegel, Popper ilgari surgan fikrlar Fuqarolik jamiyatining yangidan-yangi qirralarini, umuminsoniy qadriyat sifatidagi mohiyatini olib berdi.

Sharqda Fuqarolik jamiyatining o'ziga xos talqini mavjud. Bu, bevosita, axloq, madaniyat va ma'naviyatning huquq bilan uyg'unlashgan, fe'l-atvor, xatti-harakatlar va qoida me'yorlarning uzviy uyg'unlashgan shakli bilan bog'liq. Jumladan, eng qadimgi madaniy tarixiy-huquqiy yodgorlik–Avestoda kishilarning uyushib yashashi, o'zaro munosabatlar va aloqalarning axloq va me'yorlarga tayanishi kabi g'oyalar ilgari surilgan. Bunda o'z-o'zidan jamiyatda qonun ustuvorligiga erishish, jamiyatni shaxs tomonidan emas, qonun boshqarishi kabi Fuqarolik jamiyatining ilk belgilari namoyon bo'lgan. Forobiyning „Fozil odamlar shahri“ asarida mamlakatni boshqarishda adolatli qonun zarurligi, faol Fuqarolik jamiyatini shakllantirish mohiyati chuqur tahlil etilgan. Qonunlari mukammal bo'lgan mamlakatda adolat, inson huquqlari ustuvor bo'lishi muqarrar ekanligi bayon qilib berilgan. Forobiy fikriga ko'ra, „Shahar (mamlakat) aholisi xushxulqqa ega bo'lmagan taqdirda hokimiyatga ehtiyoj tug'iladi“, jinoyatchilik, bezorilik, qonunbuzarlik qonunlar zaif, aholi axloqiyma'naviy jihatdan barkamol bo'lmagan sharoitda avj oladi. Bunday xalqni tartibga chaqirish uchun kuchli ta'sir o'tkazuvchi hokimiyat kerak bo'ladi. Bu kabi g'oyalar Ibn Sino, Beruniy, Xorazmiy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa tomonidan ham ilgari surilgan va amaliyotda keng qo'llangan.

Uzoq tarixiy rivojlanish natijasida Fuqarolik jamiyatini hozirgi zamonaviy tushunish shakllandi. Unga ko'ra, Fuqarolik jamiyatda mulkchilik shakllarining xilma-xil va teng bo'lishi, mehnat va tadbirkorlikning erkinligiga yo'l qo'yilishi, mafkuraviy xilma-xillik va axborot erkinligi, inson huquq va erkinliklarining daxlsizligi, rivojlangan o'zini o'zi boshqarish, madaniylashgan huquqiy hokimiyat bo'lishi hamda jamiyat hayotining barcha sohalarida qonun ustuvorligi ta'minlanishi muhim hisoblanadi. O'zbekistonda Fuqarolik jamiyatini

ko'rish tarixiy an'ana bo'lsada, u butunlay yangi tarixiy sharoitlarda jahon davlatchiligi ilg'or tajribalari va ko'p ming yillik milliy an'analarning sintezi sifatida dunyoga kelmokda. Ya'ni erkinlik va axloq, ozodlik va tarbiya, qonunga itoatkorlik va siyosiy hukuqiy faollik, hurriyat va qatiy tartibintizom uyg'unligida Fuqarolik jamiyati shakllantirilmoqda.

Fuqarolik jamiyati nafaqat davlatning majburlov kuchi bilan, balki uning a'zolari bo'lmish fuqarolarning o'zлari orqali saqlab turiladigan va qat'iy tartib qaror topgan jamiyatdir. Bunday jamiyat o'zini o'zi yuksak darajada tashkil etishi bilan ajralib turadi. Fuqarolik jamiyatiga davlatning kuchli ta'siri talab etilmaydi. Davlat bunday jamiyatning nazoratida bo'lishi kerak, chunki davlat – fuqarolik jamiyatning „yollanma xizmatkori“. Zero, u fuqarolar, korxona va muassasalardan olinadigan soliqlar hisobiga mavjud bo'ladi. Mazkur jamiyat nafaqat o'zining siyosiy, madaniy hayotini, balki iqtisodiy, ijtimoiy hayotini ham boshqarib turadi. Hamma jamiyatni ham fuqarolik jamiyati deb bo'lmaydi. Fuqarolik jamiyati ancha yuksak darajadagi ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichidir.

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 4-mart kuni 2021-2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi farmonni imzoladi^[1].

Konsepsiyaning ustuvor yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

- fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning huquqiy asoslarini izchil takomillashtirish;
- fuqarolik jamiyati institutlariga ko'mak berish hamda ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini yanada takomillashtirish;
- davlat va jamiyat boshqaruvida fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;
- davlat ijtimoiy loyihibalarini amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini yanada kengaytirish;
- fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash.

„Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari“ konseptual g‘oyaning amaliy ahamiyati shundaki, unda mamlakatimizda demokratik jaraenlarni yanada chuqurlashtirishning vazifalari o‘z ifodasini topgan. Ular mustaqillik yillarida bu sohada amalga oshirilgan yangi islohotlar strategiyasining uzviy bir qismi bo‘lib, mamlakatimiz taraqqiётining bugungi bosqichidagi o‘zgarishlar zaruratini o‘zida aks ettiradi. Fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarish, o‘z hududlaridagi ijtimoiy va xo‘jalik vazifalarini hal etish, ommaviy-madaniy tadbirlarni o‘tkazishdagi faollikkari hozirgidan ko‘ra ancha kuchliroq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Sh.M.Mrziyoyev Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. -T.: "O'zbekiston" 2017 58-b
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, NMIU, 2017, 491 bet.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birqalikda barpo etamiz. –T.: “O‘zbekiston”, 2016, 56 bet
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. «Iqtisodni innovatsiyalarni keng jalb etgan holda har tomonlama rivojlantirish - xalq farovonligini yuksaltirishning muhim omili» // Xalq so'zi, 2018, 30 noyabr. – 2
5. Karimov I. A. Milliy istiqlol mafkurası-xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. -Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. T.8. T.: O'zbekiston, 2000. -B. 489.
6. Karimov .I A. O'zbekiston:milliy istiqlol, Iqtisod,siyosat, mafkura "O'zbekiston -T.: 1996, B – 649.b.
7. Fuqarolik jamiyati taraqqiyotida O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. O'quv qo'llanma. –T.: O'zbekiston, 2020. –19-20 b.
8. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. Vazirlar Mahkamasining Aholi o'rtasida huquqiy savodxonlikni oshirish va yuridik maslahat tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori.
<https://lex.uz/ru/docs>.

9. Azamova S. EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.
10. Azamova S. UMUMTA'LIM MAKTAB O 'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI //Interpretation and researches. – 2024.
11. Azamova S. A. PROBLEMS OF FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 743-749.
12. Nurillaevich O. B. et al. Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2022. – C. 984-989.
13. Aralovna O. G. et al. Ecological globalization and its social place in the globalization system of processes //Journal of Survey in Fisheries Sciences. – 2023. – T. 10. – №. 1S. – C. 5000-5006.
14. Ayonovna A. S. The Need for the Formation of Environmental Education and Upbringing in Young People in the Conditions of Environmental Globalization //Global Scientific Review. – 2023. – T. 13. – C. 7-10.
15. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o'g'li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.
16. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o'g'li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.
17. Ayonovna A. S. IN THE CONTEXT OF ENVIRONMENTAL GLOBALIZATION, THE NEED FOR ENVIRONMENTAL EDUCATION BECOMES A PRIORITY //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2024. – T. 4. – №. 07. – C. 30-35.
18. Shahrabz A. S. A. THE USE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ORIENTAL SCIENTISTS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL

CULTURE AMONG SCHOOLCHILDREN IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //International Scientific and Current Research Conferences. – 2024. – C. 94-97.

19. Ayonovna A. S. et al. GLOBALLASHUV DAVRIDA EKOLOGIK MUAMMOLARVA ULARNING YECHIMI //Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. – 2024. – T. 12. – №. 1. – C. 20-24.